

OILA - JAMIYAT ICHIDAGI QO'RG'ONDUR

Qodirova Nargiza Muxtarovna

Yangi Asr Universiteti o'qituvchisi

Saidumarxo'jayeva Munavvarxon Saidolimxon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish: (SHMT) ta'lif yo'nalishi

1-kurs talabasi

saidumarxojayevamunavvarxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda jamiyatimizda sodir bo'layotgan voqealar va oilaviy munosabatlarning turli xil tushunmovchiliklarini bartaraf etish uchun, oilada ota-onaning farzand oldidagi va farzandning ota-onsa oldidagi burch va vazifalari qanday bo'lishi kerakligini yodga solish maqsadida yozilgan bo'lib, ushbu masala yuzasidan qisman izohlar berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, farzand, burch, hurmat, tarbiya, davlat, Vatan, huquq.

АННОТАЦИЯ

Данная статья написана с целью устранения различных недоразумений, происходящих в семье сегодня, напоминания о обязанностях и ответственности родителей по отношению к детям и детей по отношению к родителям, а также для частичного освещения законов, принятых по этому вопросу, и аятов из Корана.

Ключевые слова: общество, семья, ребёнок, долг, уважение, воспитание.

ABSTRACT

This article was written in order to eliminate the various misunderstandings that are happening in the family today, to remember the duties and responsibilities of the parents towards the children and the children towards the parents in the family, as well as partial comments on the laws adopted on this issue and the verses in the Qur'an.

Keywords: society, family, child, duty, respect, upbringing.

KIRISH

Har bir davlat jamiyatlardan, jamiyat esa oilalardan tashkil topadi. Oila nafaqat shaxsiy hayotning asosiy qismi, balki jamiyatning axloqiy, madaniy va iqtisodiy poydevori hamdir. Oila tarbiya maskani bo'lib, yosh avlodni ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakillantiradi. Shuningdek, oila jamiyatning barqarorlik va ijtimoiy tartibini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat oilani qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydi, chunki mustahkam va sog'lom oilalar

barqaror va rivojlangan jamiyatning asosidir. Albatta oilaning asosi ota-onan va farzandlardir. Har bir jamiyatning rivojlanishi, uning har tomonlama mukammalashishi, malakali kadrlarni tayyorlashi va kuchli raqobatchi davlat sifatida maydonga chiqishida har bir fuqaroning, ayniqsa yosh avlodning Vatanga muhabbatli bo'lishi, o'z burchlarini bilishi, Vatanga fidokorona hizmat qilish kerakligini bilib, komil inson bo'lib yetishishi muhim va zarurdir. Unib, o'sayotgan yosh avlodni esa asosan ayol tarbiyalaydi va uning bu boradagi o'rni va martabasi beqiyosdir.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Oila nafaqat yangi avlodni dunyoga keltiradi, balki ularning tarbiyasi, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda ham asosiy institut hisoblanadi.

Oilada shakllangan muhit bolalarning shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onaning o'zaro munosabatlari, farzandlarga bo'lgan e'tibori va mehr-muhabbat ularning kelajakdagi xulq-atvori va jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.

Shuningdek, oila jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda, milliy an'ana va urf-odatlarni davom ettirishda beqiyos rol o'ynaydi. Oila a'zolari o'rtasidagi mehr-oqibat, hurmat va mas'uliyat hissi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ota-onan va farzand o'z burch va vazifalarini bilmas va bajarmas ekan bu oila hech qachon rivojlangan jamiyatga o'z hissasini qo'sha olmaydi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida "Ota-onalar farzandlarini axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashi, ularga ta'lif olish imkoniyatini yaratib berishi, farzandlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishi, ularni zo'ravonlikdan va boshqa zararli ta'sirlardan saqlashi, voyaga yetmagan farzandlarini moddiy jihatdan ta'minlashlari, farzandlari bilan mehr-muhabbatli va hurmatli munosabatda bo'lishi, ularning fikri va istaklarini inobatga olishlari kerak"-deb belgilab qo'yilgani hech kimga sir emas. Darhaqiqat ush bu mavzuning dolzarblik darajasi yuqori ekanligini yana bir isboti shundaki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining -moddalarida ham ota-onan va farzandlarning vazifalari belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkun.

ASOSIY QISM.

Har bir bola oilada tarbiyalanish, shuningdek, ta'lif olish huquqiga ega. Farzandlar ota-onalariga hurmat ko'rsatishlari, ularga mehribon va itoatkor bo'lishlari, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlar keksaygan yoki yordamga muhtoj ota-onalarini moddiy jihatdan qo'llab quvvatlashlari kerak. Farzandlarning ota-onaga bo'lgan munosabati va ota-onalarning farzandi oldidagi majburiyatlari haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgan.

Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsnинг oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'kidlash joizki, ota-onा va farzand o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilash va mustaxkamlash o'zaro hurmat-ehtirom bilan muloqot qilishlariga uzviy bog'liqdir.

XULOSA

Vatanimizda ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog'lig'ini saqlashga doir maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, mehnatni onalik bilan bog'lab qo'shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratilgan, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'lida ko'plab islohotlar amalga oshirilgan. Yaratilgan imkoniyatlar va islohotlar bugungi kunda oilada sog'lom muhitni yaratishda poydevor ustun bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Oila kodeksi 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
3. Пўлатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАҲДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
4. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
5. Po'Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
6. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN'ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.